Avtobaholash axborot tizimi-o‘qituvchilar uchun qulaylik yaratadi(mi)?

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti katta ilmiy xodimi Rifkat Davronov tomonidan “Avtobaholash” axborot tizimi yaratildi. Ushbu axborot tizimi o‘quv markazlari, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning ishini tezlashtirish, yengillashtirish va unumdorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan.



Raqamli baholash o‘qituvchilar ishini oson va hamyonbop qiladi. Bu Scantron mashinalari va tijorat printerlari kabi yuqori darajadagi ixtisoslashtirilgan skanerlarga muhtoj emas. Bu dastur orqali test topshirgan har qanday shaxs imtihon tugashi bilanoq testdagi ballarni ko‘rish imkoni mavjud, baholashda o‘quvchilarga qulaylik yaratish, narxi juda qimmat turadigan skantron mashinasi yoki varaqali qurilmalarini vazifalarini mobil ilova yordamida amalga oshiriladi. Bu esa o‘qituvchiga dars jarayonida barcha talabalarni baholash imkonini yaratadi va o‘qituvchilar ish yuklanmasini 30% ga kamaytiradi. Yaratilgan yangi loyiha haqida quyidagi havola orqali to‘liq ma’lumot olishingiz mumkin:http://avtobaholash.uz/.